






BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023



1/2023

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 1

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M. Filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti SE. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V. Kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A. Texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E. Fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, Psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva M.K., filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev D.R., fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov B.B., kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'ZR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev N.K., siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Вахидова Ф.С.	Дискурса диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров З.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлашиш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шарипова А.А.	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шарипова Л.Ф.	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадий тасвир	288

**INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY PERIFRAZALARINING SEMANTIK
MIKROMAYDONIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK XOSLIKLARI**

Kobilova Aziza Baxriddinovna;
katta o`qituvchi, f.f.f.d (Phd)
Buxoro davlat universiteti
a.b.kobilova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o`zbek tibbiy perifrazalarining semantik mikromaydonidagi milliy xosliklari to`g`risida fikr yuritilgan. Maqolada publitsistik matnlarda keltirilgan tibbiy perifrazalar tahlil qilinib, tibbiy perifrazalar shartli ravishda bir necha lug`aviy ma`no guruhlariga ajratilgan va ikki til doirasida ko`rib chiqilgan.

Perifrazalar turli-tuman lug`aviy ma`nolarni obrazli ifodalashiga ko`ra tilning semantik mikromaydonida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi va o`z ichida turli sohalarga xoslangan mavzu guruhlariga bo`linadi.

Tibbiy perifrazalarni lug`aviy ma`no guruhlariga ajratish davomida jami 212 ta tibbiy perifrazalar tahlilga tortildi. Statistik va qiyosiy tahlil metodlar olib borilib, ikki til doirasida ko`rib chiqilgan tibbiy perifrazalar qardosh bo`lmagan madaniyat tillari bo`lganligi sababli qo`llanilish jihatdan ham farq qilinishi asoslandi.

Kalit so`zlar: tilshunoslik, tibbiy perifrazalar, publitsistik matn, leksik-semantik ma`no, qardosh bo`lmagan madaniyat tillari, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, lug`aviy ma`no guruhlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются национальные особенности английских и узбекских медицинских перифраз в семантическом микрополе. В статье анализируются медицинские перифразы, представленные в публицистических текстах. Медицинские перифразы условно делятся на несколько групп лексических значений и рассматриваются в рамках двух языков.

Перифразы образуют отдельную лексико-семантическую группу в семантическом микрополе языка и подразделяются на тематические группы, характерные для разных областей.

Всего при классификации медицинских перифраз на группы лексических значений было проанализировано 212 медицинских перифраз. Проведены статистические и сравнительные методы анализа, и доказано, что медицинские перифразы, рассматриваемые в двух языках, различны в плане употребления в связи с тем, что являются языками неродственных культур.

Ключевые слова: языкознание, медицинские перифразы, публицистический текст, лексико-семантическое значение, языки неродственных культур, статистический анализ, сравнительный анализ, группы лексического значения.

Abstract. This article discusses the national features of English and Uzbek medical periphrases in the semantic micro-field. The article analyzes the medical periphrases presented in journalistic texts. Medical periphrases are conditionally divided into several groups of lexical meanings and are considered within the framework of two languages.

Periphrases form a separate lexical-semantic group in the semantic micro-field of the language are divided into thematic groups specific to different areas.

In total, when classifying medical periphrases into groups of lexical meanings, 212 medical periphrases were analyzed. Statistical and comparative methods of analysis have been carried out, and it has been proved that medical periphrases considered in two languages are different in terms of use due to the fact that they are languages of unrelated cultures.

Keywords: linguistics, medical periphrases, journalistic text, lexical and semantic meaning, languages of unrelated cultures, statistical analysis, comparative analysis, lexical meaning groups.

Kirish. Biz kundalik hayotimizda ma'lum bir voqelik haqidagi axborotni, shuningdek, shu hodisaga bo`lgan munosabatimizni, hissiy kechinmalarimizni ifodalashda turli vositalardan foydalanamiz. Voqelikni ifodalashda bir qancha usullar mavjudligini, ular kommunikativ intensiyaning yuzaga chiqishiga xizmat qilishini bilamiz.

Antik davrdan boshlab jamiyat a'zolari bir-birlariga narsa-hodisalar haqida ma'lumot berar ekan, ularning muhim xususiyatlarini tasvirlashga, qiyoslab izohlashga, o'zlari muhim deb hisoblagan jihatlarini

bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilishganki, bunday nutqiy ehtiyoj natijasida ifoda shakllarining turlicha tasviriy vositalari yuzaga kelgan. O'zbek tili qardosh tillar orasida nutqiy ifoda vositalariga o'ta boyligi bilan, turli birliklarni nutqiy jarayonning o'zidayoq yasab olish imkoniyatiga egaligi bilan ham ajralib turadi. Ko'p qirrali, o'zgaruvchan tabiatli, nutqni sayqallovchi ana shunday vositalardan biri perifrazalardir. Til taraqqiy etar ekan, undagi perifrastik qatlam ham rivojlanib boraveradi. Yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida uning turli-tuman shakllari yuzaga keladi.

Aristotel, Sitseron, Kvintilian kabi faylasuflar bu hodisaga alohida e'tibor qaratishgan. O'sha davrdan buyon nutqqa nisbatan qo'yiladigan muhim talablar – ravonlik, aniqlik, mantiqiylik, bir ma'nolilik, xilma-xillik, tushunarlik, xushohanglik, tasviriylik, qisqalik, lo'ndalik, haqqoniylik hozirga qadar qimmatini yo'qotmagan. Bu davrda ma'no ko'chirilarini tasnif etishda ilk qadamlar qo'yildi, perifrazani tasviriy ifodalar qatoridagi o'rnini aniqlash, bu hodisaning noodatiy fenomen tabiatini tekshirish singari masalalar shular qatoridandir. Ayniqsa, XVIII asr shoirlari qo'llaydigan xos "Decorum" prinsipi bo'lib, ular o'z she'rlarida va nasriy asarlarida oddiy so'zlarning o'rnida perifrazalardan foydalanishgan. Bunga misol qilib, Robert Blerning "The Grave" ("Qabr") she'rida qo'llanilgan perifrazani keltirishimiz mumkin. U telescope is the sight-invigorating tube, ya'ni teleskop so'zi o'rnida ko'rishni tetiklantiruvchi naycha [15, 8] perifrazasini qo'llagan. Shuningdek, Jeyms Tomsonning "The Season" ("Mavsum") asarida finny tribe? fish, the bleating kind – sheep [4, 54], ya'ni baliq o'rnida finni qabilasi, qo'y o'rnida semirayotgan tur kabi ko'plab perifrazalarni uchratish mumkin.

Asosiy qism. XX asrning 50-yillarida dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida I.Z.Ilina (1954) [5, 24]; V.P.Utkina(1959) [16, 87] lar tomonidan perifrazalarning nutqni boyituvchi, sayqallovchi uslubiy vositalar sirasidagi o'rni, ularning o'ziga yondosh boshqa lisoniy hodisalar va vositalar bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari perifrazalarning serqirra tabiati jahon tilshunosligida ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lganligini, shu bois unga berilgan ta'riflar ham turlicha ekanligini kuzatamiz. Tilshunoslikda XX asrning 70-yillaridan boshlab perifrazalarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Rus tilshunosligida dastlab V.P.Grigoryev tadqiqotlarida so'z~obraz~denotat munosabatlari nuqtayi nazaridan lingvistik muammo sifatida "poetik nutqni hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri" sifatida tasvirlandi [3, 104]. S.Y.Makarova tadqiqotlarida perifrazalarning badiiy-ekspressiv xususiyatlari, uslubiy figuralar va troplar tizimidagi o'rni va fe'l birikmalari tiplari borasida qimmatli mulohazalar bildirilgan [14, 55]. Xususan, Y.D.Apresyaning "Tilning ma'nodoshlik vositalari va perifrazalash qoidalari" nomli maqolasida perifraza mohiyatini ochib berishga qaratilgan talqinlar tilshunoslarda alohida qiziqish uyg'otdi. "Insonning nutqi lingvistik perifrazatsiyalash qobiliyatiga ega. Ya'nikim, insoniyat (keng ma'noda) xohlagan narsani tafakkurida obrazli ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'ladi", deb yozadi tilshunos [1, 31].

Shuningdek, perifrazalarning lokutiv (axborot berish), perlokutiv (nutqiy akt paytida adresatga ta'sir etish), ramziy tomonlari K.Fuks qarashlarida shakllantirilib, ilk ma'lumotlar ishlab chiqildi [19, 129]. Yana qator manbalarda perifraza sodda tushunchani qiyin usullar orqali ta'riflash (I.V.Arno'd), erkin ibora yoki butun jumla shaklida mos keladigan narsa yoki hodisaning nomini almashtirish (Galperin), bir tushunchani bir necha so'zlar orqali atash (M.V.Lomonosov), fenomenning mantiqiy ifodasini hissiy ifodaga almashtirish (A.A.Potebnya: "Adabiyot nazariyasi haqida eslatmalar"), obrazli sinonim (A.I.Yefimov), oddiy so'zni tavsiflovchi birikma bilan almashtirish (O.S.Axmanova, K.Timmons, F.Gib), sifatida tushuntiriladi [2, 19].

Perifraza/parafraza yunoncha siqilgan nutqning batafsil, keng tushuntirilgani bo'lib, so'zni boshqa bir so'z bilan ifodalash, bir so'zni izohlash uchun so'zlarni o'zgartirish [6, 15], fikr (jumla)ni takrorlashning kengaytirilgan shakli [7, 1637] sifatida baholanadi.

Tilshunos olim V.A.Kuxarenko esa perifrazani so'zning o'rniga murakkabroq yoki nisbatan oddiroq sintaktik qurilmadan foydalanish yoxud tasvirning bilvosita shaklini ko'llashdan iborat bo'lgan o'ziga xos stilistik usul sifatida baholaydi [8, 255].

Ingliz tili lug'atlarida perifraza va parafraza atamaları ikkita boshqa-boshqa atamalar sifatida izohlanadi. Jumladan, "Macmillan" lug'atida perifraza biror narsani zarur bo'lganidan ko'ra murakkabroq ifodalash uchun qo'llaniladigan vosita, parafraza esa boshqa birovning aytgan yoki yozgan gaplarini turli so'zlar yordamida ifodalash, ayniqsa, uni qisqaroq yoki aniqroq qilish uchun ishlatiladigan vosita sifatida ta'riflangan. "The Sonsise Oxford Distionaru of Literaru Terms" lug'atida perifraza – biror narsani bevosita bitta so'z yoki iborada nomlash o'rniga bir nechta so'zlar orqali murojaat qilishning aylanma yo'li, parafraza esa, odatda, asl ma'noni aniqlash uchun matnning ma'nosini turli so'zlar bilan takrorlash uchun qo'llaniladigan vosita deb izohlangan. Shuningdek, "The Routledge Dictionary of Literary Terms" lug'atida parafrazaga bir xil ma'no ifodasi uchun bir nechta iboraning mavjudligi deb ta'riflangan bo'lsa, "A Glossary of Literary Terms" lug'atida perifrazaga biror narsa, hodisani nomlashda oddiy so'zlardan qochish maqsadida o'rnini bosuvchi so'z birikmalari orqali aytishning aylanma usuli deb izoh berilgan. Bundan tashqari, "The

New Webster's Encyclopedic Dictionary" entsiklopedik lug'ati perifriza atamasini batafsil tavsiflovchi ifoda vositasi sifatida izohlaydi [2, 22].

Tadqiqot metodi. Perifrazalar turli-tuman lug'aviy ma'nolarni obrazli ifodalashiga ko'ra tilning semantik mikromaydonida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi va o'z ichida turli sohalarga xoslanganligi hamda to'g'ridan to'g'ri tilning atash xususiyatiga ega bo'lgan birliklari asosida mavzuviy guruhlarga bo'linadi. Shu o'rinda aytish joizki, tasviriy ifodalar umumiy (integral) va farqli (differensial) belgilarga ega. Ularning barchasi tilning lug'aviy ma'noni hissiy, obrazli ifodalovchi mikrosemantik maydoniga mansubligi bilan umumiylik, muayyan sohaga, uning biror guruhiga doir perifrastik nomlarni anglatishi bilan farqlilik belgisiga egaligini ko'rsatadi.

Nutqda perifrazalarni qo'llash so'zlovchining maqsadi, nutqiy sharoit va vaziyat bilan bog'liqligi yuzasidan mulohaza yuritilgan bo'lsa-da, bu masala perifrazaning asosiy leksik-semantik turlarini belgilashda muhim o'rin tutishini ta'kidlash lozim [9, 162]. Chunki tasviriy ifodaning leksik-semantik turlaridan qay biri tibbiyot xodimi nutqida ko'proq uchrashiga munosabat bildirish ayni masala bilan bog'liq. Ma'lumki, nutq madaniyati talablari hamda odob-axloq me'yorlariga muvofiq nutqiy harakat muloqotning samarali kechishini ta'minlaydi. Aksincha, kommunikantlar nutqiy harakati mazkur talablarga nomuvofiq bo'lsa, bunday muloqot samarasiz kechadi [10, 143]. Shu nuqtayi nazardan tibbiyot xodimlari nutqida perifrazalar, vaziyat/sharoit, nutq talabiga ko'ra namoyon bo'ladi. Perifrazalar o'zlari anglatgan leksik ma'nolarga qarab muayyan lug'aviy ma'no guruh(LMG)lariga birlashadilar.

Muhokama. Kuzatishlarimiz davomida biz tibbiy perifrazalarni shartli ravishda LMGlarga ajratdik. Quyida tibbiy perifrazalar LMGlarning har biriga xos xususiyatlarni izohlashga harakat qilamiz.

I. Ayollarning ba'zi jismoniy holatlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Mazkur perifrazalar aynan ayollarda kechadigan holatlarni qayta nomlashi bilan xarakterlanadi. Buni misollarda kuzatamiz:

Medical schools and residency programs need to return pregnancy termination (abortion) to the curriculum, and federal and state measures must be strongly enforced. (The New York Times, Oct 13, 1994, Section A, Page 26). Ushbu misolni tahlil etar ekanmiz, ingliz xalqi uchun "abort" (homilani oldirish, yo'qotirish) so'zi ham, ushbu ishni qilish ham tabu hisoblanadi. Hatto abort qilgan shaxs qotil hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu salbiy holat inglizxabon xalqlarning lingvomadaniyatiga ham ta'sirga ega ekanligi sabab, ushbu so'zni ishlatmaslikka, zarur bo'lganda mazkur leksik birlikni perifriza orqali ifodalashga harakat qilishadi.

Infertility – typically defined as an inability to get pregnant after a year of unprotected intercourse. (Grow by WebMD, September 9, 2019); *I am heavy with child (being pregnant) right now, but at least the baby is due next week.* (Maternity action, July, 2021); *Preeclampsia is when pregnant women have high blood pressure, protein in their urine, and swelling in their legs, feet, and hands. Toxemia of pregnancy can range from mild to severe.* (Mayo Clinic, March 19, 2020). Berilgan misollarda ingliz xalqining o'ziga xos lingvomadaniyati namoyon bo'ladi, ya'ni ayollarga xos bo'lgan bepushtlik – homilador bo'lolmaslik, homiladorlik – og'iroyoq, prieklamsiya – homila toksemyasi sifatida perifrazalar orqali ifodalangan hamda inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi salbiy so'zlar muloyimlashtirilgan.

O'zbek tilida: *Quvonchli, ayni vaqtda, tashvishlarga boy davr. (homiladorlik)* («Sug'diyona» gazetasi, 2020. 4-son); *Yelbo'g'oz – yolg'on homiladorlik haqida nimalarni bilasiz? Homilami yo yo'ldosh?* («Sug'diyona» gazetasi, 2019. 2-son); *Ayollar uchun tuhfa – Mo'jizali to'qqiz oy.* («Shifo-info» gazetasi, 2019. 10-son); *Yorug' dunyo sari 9 oylik safar.* («Tashxis» gazetasi, 2016. 19-son); *Urug'langan tuxum hujayra bachadonga tushadi va uning devoriga mahkam yopishib oladi. Ana shu paytdan boshlab bachadonda yangi hayot – homila rivojlanadi.* («Shifo-info» gazetasi, 201. 46-son). Keltirilgan misollardan o'zbek xalqi bolajon xalq ekanligi, ayolning homilador bo'lishi esa, aksariyat hollarda, o'sha ayol hamda uning yaqinlari uchun quvonchli xabar ekanligiga, homiladorlik davrida ayolni imkon qadar avaylab asrashlariga guvoh bo'lamiz, tabiiyki, bu o'zbeklarning lingvomadaniyatini aks ettiradi.

Yelbo'g'ozlikda, odatda, homila oldiriladi. Ba'zan organizmning o'zi tabiiy ravishda tozalanib oladi. Agar bunday bo'lmasa, uzum shodachalarini jarrohlik yo'li bilan olib tashlash zarur. («Sug'diyona» gazetasi, 2019. 2-son); *Abort – bepushtlikka olib boruvchi eng qisqa yo'l.* («Tashxis» gazetasi, 2016. 19-son); *Husnbuzar – yuzni buzar.* («Tashxis» gazetasi, 2016. 19-son). Berilgan misollarda ayollarga xos bo'lgan kasalliklar perifrazalanib, *uzum shodachalari* orqali ijobiy bo'yoqdorlik oshirilgan bo'lsa, *bepushtlikka olib boruvchi eng qisqa yo'l, yuzni buzar* kabi perifrazalar ogohlikka chorlovchi xarakterga ega.

II. Turli kasalliklar nomi bilan bog'liq tibbiy perifrazalar. Bunday perifrazalarda kasallik nomlari obrazli ifodalanadi: *AIDS – 21st century plague, the global number of people living with HIV has doubled in a decade to exceed 40 million for the first time.* (Independent, November, 2005.) Ushbu misolda OITS «XXI asr vabosi» sifatida perifriza orqali ifodalangan. Tarixda turli asrlarda har xil vabolarining paydo bo'lishi

ko'plab insonlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Vabo so'zining etimologiyasiga nazar solsak, vabo so'zi organizmning suvsizlanishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik ekanligiga guvoh bo'lamiz. OITS kasalligi ham XX asr oxirlarida paydo bo'ldi va insoniyat boshiga ancha balolar yog'dirdi. Shu sababdan mazkur kasallik nomi vaboga o'xshatilgan.

You say that one of the common feelings during this prolonged grieving process (cancer) is ambivalence. (Harvard Women's Health Watch, March, 2011). Keltirilgan matnda saraton kasalligi «uzoq muddatli qayg'u jarayoni» sifatida ifodalangan bo'lib, kasallikning og'ir kechishi, insonning ruhiyatiga ta'sir qilishi ingliz lingvomadaniyatida shu perifriza orqali namoyon bo'lgan.

Tibbiyotga oid atamalarning, jumladan, kasallik nomlarining aksariyati lotin tilidan olinganligi ko'pchiligimizga ma'lum. Biroq barchamiz ham kasallik nomlarini eshitishimiz bilan uning mohiyatini, aynan qanday kasallik ekanini har doim ham anglayvermaymiz. Shunday damlarda bizga perifrazalar yordamga keladi. Masalan, *Stenokardiya – yurakni g'ijimlaydigan dard.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 15-son.); *Gipoterioz – odamning quvvatini oluvchi dard.* («Doktor press» gazetasi, 2016. 26-son)

Guvohi bo'lganimizdek, kasalliklar nomini ifodalovchi tibbiy perifrazalar oddiy xalq vakillariga ham birdek tushunarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bunda ularni tasviriy ifodalashda kasallik xususiyatlari inobatga olinmoqda. Shu jihatdan kasallik nomlarini tasviriy ifodalashni xalq tilida tushunarli qilib izohlash ham lingvomadaniyatning namoyon bo'lishida salmoqli ahamiyatga ega.

III. Fasllar bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Bunday perifrazalarda vaqt va yosh bilan bog'liq holatlar fasllar orqali obrazli ifodalanadi. Fasllar bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi perifrazalarni ingliz tilida uchratmadik, ammo o'zbek tilida bunday perifrazalar talaygina ekanligiga guvoh bo'ldik. Masalan, *Organizmi ilik uzildi davriga birgalikda tayyorlaymiz* («Darakchi» gazetasi, 2020. 7son).

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «ilik uzildi» birligiga quyidagicha ta'rif beriladi: Iliguzildi – erta ko'klamda qo'r-qut tugagan, hali hech narsa pishmagan, kishi organizmi darmondorilarga ehtiyoj sezadigan davr. *Ayyor boy (Soliboy) qish va iliguzildi – bahor kezlarda o'n bordon g'allani dehqonlarga bo'lib berib, kuzda yana yigirma bordon qilib yig'ib olar edi.* (Y.Shukurov. Qasos)

Yuzda ochilgan bahor gullari – bahorning quyoshli kunlari go'zal qizlarimizni biroz tashvishga solishi tabiiy. Negaki, u yuzdagi dog'lar va sepkillarning avj olishiga sabab bo'ladi. («Shifo-info» gazetasi, 2014. 11-son). *Yuzinchi bir bahor – Sa'diy yuzinchi bir bahorni kutib oldi va so'nggi bahor kelganini his etdi.* («Sihat salomatlik», 2018. №4, 26-b.)

Inson umrining kuzi – quyidagi inson umrining kuzi deya ta'riflanuvchi keksalik xususidagi eng ommalashgan savollar hech kimni befarq qoldirmasligi aniq. («Sharq tabobati», 2017. №6. – B.31). Keltirilgan matnlarda fasl nomlari asos bo'lgan tasviriy ifodalar mohirona qo'llanganini va bu tasviriy ifodalar o'zbek xalqining urf-odatlarini, mentaliteti bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi, bu esa o'zbek xalqining o'ziga xos lingvomadaniyatini namoyon etishini kuzatish mumkin.

IV. Og'riq bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Bu tur perifrazalar orqali inson organizmida kechayotgan og'riq turlicha ifodalanadi.

Ingliz tilida og'riq, ya'ni «pain» «ache» «sore» so'zlari bilan bog'liq *causing intense suffering, unbearably distressing, an excruciating noise, abscessed tooth* kabi perifrazalar ishlatiladi.

O'zbek tilida: *Qancha dori ichilmasin, og'riq yo'qolmaydi. Surunkali og'riq ana shunday «zirapcha».* («Sug'diyona» gazetasi, 2020. 32-son); *Og'riq – organizm hayqirig'i! Unga quloq solmaslik va «og'zini yopish» yaxshilikka olib kelmaydi.* («Sug'diyona» gazetasi, 2019. 3-son); *«Voy, belim...» surunkali og'riqning davosi bormi?* («Sug'diyona» gazetasi, 2020. 3-son).

V. O'simlik nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Bu tur perifrazalar shifobaxsh o'simliklarga nisbatan qo'llanilib, ularning muhim belgi-xususiyatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

Pulmonaria officinalis, common names lungwort, common lungwort, Mary's tears or Our Lady's milk drops, is a herbaceous rhizomatous evergreen perennial plant of the genus Pulmonaria, belonging to the family Boraginaceae (Dreams Time, October 23, 2019). Bilamizki, medunitsa o'simligi tabobatda yo'tal, bronxit, tomoq og'rig'i, sil va astma bilan kurashishda samarador giyohlardan biridir. Berilgan misolni lingvokul'turologik nuqtayi nazardan tahlil etar ekanimiz, ushbu giyohning *Mary's tears* yoki *Our Lady's milk drops* deb atalishi ingliz xalqining afsonalaridan biriga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, Maryamning qayg'uli ko'z yoshlari to'kilgan joyda moviy rangli medunitsa giyohi o'sib chiqqan va *Mary's tears* yoki *Our Lady's milk drops* deb atash bilan Bibi Maryamning yig'lashidan qizargan ko'k moviy ko'zlari izohlab aytilgan.

Turmeric itself has also been known to be a healing spice and has been used to help many ailments (Healthline, May 10, 2021). Ushbu misolda zanjabil o'simligi «healing spice», ya'ni «shifobaxsh ziravor» perifrazasi bilan tasvirlangan. Ko'pgina madaniyatlarda lotincha kurkuma deya ataladigan ushbu giyoh nafaqat ingliz madaniyatida, balki o'zbek madaniyati kishilari orasida ham juda mashhur. Chunki undagi

faol moddalar yurak sog'lig'ini yaxshilash, Altsgeymer va saraton kasalligi, shuningdek, bir qator jiddiy kasalliklarning oldini olishda yordam beradi.

O'zbek madaniyatiga oid shifobaxsh o'simliklar perifrazalarini kuzatamiz: *Tabiat yuborgan «tez yordam»*. *Petrushka jigar uchun juda foydali. Ovqatni ko'p iste'mol qilganda yordam beradi. Peshob haydovchi xususiyati ham mavjud.* («Darakchi» gazetasi, 2018. 51-son). Ushbu misolda petrushka **tez yordam** sifatida izohlangan va inson organizmiga tez va oson ta'sir qilishiga ishora qilingan.

Moychechak – shifo chechak («Shifo-info» gazetasi, 2017. 16-son). Moychechak nafaqat ingliz madaniyatida, balki o'zbek madaniyatida ham juda mashhur o'simliklardan biri bo'lib, Abu Ali ibn Sino o'zining “Tib qonunlari” asarida shamollash va isitmada moychechakning foydali tomonlari va undan foydalanish yo'llarini batafsil tushuntirib o'tgan.

Qora zirkning **oppoq fazilatlar**. 2670 yil muqaddam sopol taxtachalarga yozilgan kitoblarga qaraganda, zirk «**qonni tozalovchi**» omil tariqasida qadrlangan. Zirk – **dardlarga qarshi zirk**. («Shifo-info» gazetasi, 2017. 16-son). O'zbek tabobatida qora zirkning ahamiyati katta bo'lib, undan isitmani pasaytirishda, ich ketishini to'xtatishda, jigar xastaliklarini davolashda hamda yurakni baqquvat qiluvchi vosita sifatida keng qo'llaniladi va shuning uchun ham uni **qora qand** deb atashadi.

VI. Sabzavot nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Bunday perifrazalarda sabzavotlarning inson salomatligi uchun muhim bo'lgan xususiyatlari tasviriy ifodalar orqali izohlanadi. Kuzatamiz:

Eggplant is a versatile vegetable that can absorb the flavor of whatever else is going in your dish. Plus, studies have shown that eggplant contains cardioprotective compounds for a healthier heart (Good Housekeeping, December 23, 2020). Tarixga nazar solsak, azaldan ingliz madaniyatida baqlajon sabzavotidan keng foydalanilgan. Baqlajonning yurak-qon tomir kasalliklarining oldini oluvchi, yurak mushaklarini mustahkamlovchi hamda osteoporoz va osteoxondrozga qarshi kurashuvchi xususiyatlari tufayli uni **a versatile vegetable**, ya'ni ko'p qirrali sabzavot deb atashadi.

Though technically it is fruit, tomatoes often consider as vegetables. Are rich lycopene, these beautiful red fruits are famous for the opportunity in fight against cancer. (<https://en.ppt-online.org/430369>). Saraton kasalligiga qarshi kurashuvchi pomidor sabzavoti ko'rinishi jihatdan mevaga o'xshaganligi uchun uni **beautiful red fruits**, ya'ni **chiroyli qizil meva** deb atashgan.

Pepper – enemy of bacteria and virus (BBC News, 2015). Berilgan misolda qalampirga nisbatan bakteriya va viruslar dushmani perifrazasi ishlatilgan. Qalampir yurak-qon tomirlarini himoyalovchi, semirishni oldini oluvchi, shamollashni davolovchi, ichak va ko'krak bez saratonini davolovchi, jigarni himoyalovchi hamda organizmni Vitamin C bilan oziqlantirib hayotni uzaytiruvchi kabi shifobaxsh xususiyatlari sabab, ikkala madaniyat xalqlari ham ushbu mahsulotni sevib iste'mol qilishadi.

O'zbek madaniyatiga xos bo'lgan shifobaxsh sabzavotlar ham bisyor: *Sabzi – ming dardga davo.* («Shifo-info» gazetasi, 2018. 3-son.); *Piyoz – ayol salomatligi qo'riqchisi.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 2-son.); *Sholg'om – ko'chirar balg'am.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 2-son.); *94%i faqat suvdan iborat bo'lgan bu ne'mat (pomidor)da ma'danli moddalar shu qadar ko'pki, uni bemalol darmondorilar xazinasi deb atash mumkin.* («Tabiatning o'zi tabib» T., 2005. 13-b.); *Oshqovoq – sariq oltin. Qovoq moyi – shifoning koni.* («Shifo-info» gazetasi, 2016. 44-son.); *Qovoq – tabiiy dorixon.* («Darakchi» gazetasi, 2018. 40-son b.); *Oshqovoq ichidagi dorixon.* *Oshqovoq urug'ining qurt tozalovchi sifatini barcha biladi. Ammo shu bilan birga bu urug'ning foydalari ko'p.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 25-son.); *Olma va pomidor - o'pkaga bo'lar mador.* («Shifo-info» gazetasi, 2018. 3-son).

VII. Meva nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Tibbiy perifrazalarning bu guruhida mevalarning inson hayotida sog'lom turmush tarzini tashkil etishi uchun ahamiyatli bo'lgan xususiyatlari obrazli ifodalanadi. Ikkala madaniyat xalqlari ham turli vitamin va minerallarga boy mevalarni sevib iste'mol qilar ekan, millat madaniyatiga xos lingvomadaniy jihatlarni tashuvchi birliklar sifatida mevalarga nisbatan qo'llanilgan ko'plab perifrazalar mavjudligiga amin bo'ldik. Jumladan, *Plum – reducer blood sugar* (Healthline, May 13, 2017). Ushbu misolda olxo'ri mevasi **reducer blood sugar**, ya'ni qondagi shakar miqdorini kamaytiruvchi perifrazasi orqali ifodalangan.

On the late Boston Transcript, a feature writer, with a fondness for using three words where one would do, once referred to bananas as "elongated yellow fruit". This periphrasis so fascinated Charles W. Morton, now the associate editor of the Atlantic, that he began collecting examples of "Elongated Yellow Fruit" writing. (The Press: Elongated Fruit, August 10, 1953). Ushbu misolda banan mevasi “cho'zilgan sariq meva” sifatida perifrazalashtirilgan. Banan mevasi azaldan ingliz xalqining asosiy meva turlaridan sanalib, uning onkologik kasalliklar, tomir tortishi, buyrak kasalliklarining oldini olishga yordam beruvchi shifobaxsh xususiyatlari mavjudligi isbotlangan. Shuning uchun kunlik iste'molda banan miqdorini kanda qilmaslik tanani sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbek tilida: *Tut – bahor mevasi.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 17-son); *Apelsin – sharbatidan po'stlog'igacha shifobaxsh.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 7-son); *Olma va pomidor – o'pkaga bo'lar mador.* («Shifo-info» gazetasi, 2018. 3-son). Ma'lumki, tut o'zbek turmush tarzida iste'mol uchun yaroqli bahoriy meva turi sanaladi, inglizlar esa bu meva haqida deyarli bilishmaydi. O'zbek mentaliteti va milliy qadriyatini o'ziga namoyon etgan ushbu meva kaliy, natriy, rux, selen, mis, fosfor, kal'tsiy, magniy, temir kabi mineral va moddalarga boy bo'lib, immun tizimini kuchaytirib, organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi himoyalaydi.

Keyingi misol: *O'rik – yurak malhami* («Doktor press» gazetasi, 2016. 26-son). Berilgan misolni tahlil qilar ekanimiz, o'rik mevasi malhamga, ya'ni yurakka davo, darmon bo'luvchi vositaga o'xshatib perifractalashtirilganiga guvoh bo'lamiz. O'zbek xalqining sevib iste'mol qiluvchi mevalaridan biri sanalgan o'rik – yurak-qon tomiri va oshqozon-ichak kasalliklarida juda foydali.

VIII. Tana a'zolari nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar: *The most complex organ in your body, the brain is located in your head. A computer in your head operates in a different way. It gets its energy in the form of glucose from the food you eat...Like other structures of the body, the master organ is also vulnerable to several disorders, injuries* (New Scientist, September 4, 2006). Hozirgi kunda texnologiya jadal rivojlanib ketdiki, kompyutersiz hayotni tasavvur qilib bo'lmasa kerak. Kompyuter barcha sohalarida asosiy ish quroli bo'lganidek inson tanasining eng muhim a'zolaridan sanalgan bosh miya insonning tafakkur qilishi, muayyan dunyoqarashga ega bo'lishida asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Berilgan misolda ingliz madaniyatining zamonaviy ko'rinishini ko'rsatib beruvchi vosita, ya'ni kompyuter orqali inson miyasi *tananing eng murakkab organi* hamda *boshning kompyuteri* perifrazalari bilan ifodalangan.

O'zbek tilida: *Oyoq kaftida «sehrli» nuqta bor. Bu nuqta Xitoy tibbiyotida «qarish jarayonining tormozi» deya e'tirof etilgan.* («Shifo-info» gazetasi, 2019. 12-son); *O'pka – kislopod tashyuvchi a'zo qanday tyzilgan?* («Shifo-info» gazetasi, 2017.12-son); *«O'rdak panjalar...»* (yassioyoqlik) («Darakchi» gazetasi, 2019. 5-son); *Jigar «biokimyoviy fabrika» hisoblanadi. U organizmni bakteriya, toksin va antigenlardan tozalaydi. Vitamin va oqsillarni sintezlaydi.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 1-son); *Miya – tana qo'mondoni.* («Shifo-info» gazetasi, 2016. 19-son); *Oyoq kafti – xastalik darakchisi. Pediatriya yo'nalishi mutaxassisi xastalik tufayli (qandli diabet) oyoq kaftida yuzaga keladigan asoratlarning oldini olish va davolashga xizmat qiladi.* («Hamshira» gazetasi, 2016. 3-son); *Til – tana «ko'zgusi».* («Shifo-info» gazetasi, 2018. 3-son); *Nerv – muammolar sababchisi* («Tashxis» gazetasi, 2019. 14-son).

IX. Tibbiy anjom nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar:

In hemodialysis, an artificial kidney (Hemodialyzer) is used to remove waste and extra chemicals and fluid from your blood. (Healthline, February 14, 2019); *Defibrillator – a life saving device.* (EHS Today, June 12, 2017). Berilgan misollardan ko'rinadiki, ingliz tilidagi turli tibbiy anjomlarning funktsiyalari oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishi uchun perifraza orqali taqdim etiladi.

O'zbek tilida tibbiy anjomlarni ifodalovchi tibbiy perifrazalarning ham keng tarqalganligi kuzatildi. Bunday perifrazalarda tibbiy anjomning vazifasi yoki aynan nimaga mo'ljallanganligi o'z ifodasini topadi. Masalan, *Bandaj – homilani asrashda yordamchi.* («Sug'diyona» gazetasi, 2020. 2-son); *Mini-nasos – xasta yurak xaloskori.* («Doktor press» gazetasi, 2016. 28-son); *Hayz davrida xushbo'ylashtiruvchi qistirmadan foydalanish maqsadga muvofiq.* («Shifo-info», 2018. №12. – B.21)

X. Tibbiy mashq nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Tibbiy mashqlarning nomlanishi bizga biroz tushunarsiz bo'lsa, aynan shu mashqlarni obrazli ifodalovchi, shu bilan birga mohiyatidan xabar beruvchi tibbiy perifrazalar yordamga keladi:

Pranayama is the practice of breath regulation. It's a main component of yoga, an exercise for physical and mental wellness. In Sanskrit, «prana» means life energy and «yama» means control. (Healthline, May 15, 2020); *It's time to roll out your yoga mat and discover the combination of physical and mental exercises that for thousands of years have hooked yoga practitioners around the globe.* (The New York Times, May 13, 2017).

Demak, ingliz madaniyatida sog'lom turmush hayotiga rioya qilish uchun turli xil mashqlar bilan shug'ullanish, jismonan va ruhan sog'lom bo'lishning ahamiyati katta. Buni hatto ularning lingvomadaniyatida ham kuzatishimiz mumkin. Tabiiyki, bu o'zbek lingvomadaniyatida ham kuzatiladi.

O'zbek tilida: *Balasana – "homila holati" mashqi.* («Darakchi» gazetasi, 2020. 4-son.); *Apanasana – qorin dam bo'lganda "yel haydovchi" yoga mashqi.* («Darakchi» gazetasi, 2020. 4-son.); *Shifokor tavsiyasi bilan nafas gimnastikasi – sharni shishirish, fizioterapiya o'tkazilishi mumkin.* («Darakchi» gazetasi, 2019. 12-son.); *Tovon massaji – ichki a'zolar «yostiqchasi»* («Shifo-info» gazetasi, 2019. 12-son).

XI. Vitamin nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Tibbiy perifrazalarning ushbu ko'rinishida darmondorilar obrazli ifodalanadi. Masalan, N vitaminining bosh harfi «N» ingliz tilidagi «nature» tabiat so'zidan olingan bo'lib, ushbu vitamining nisbatan «tana va ongning kuchli qalqoni» perifrazasi qo'llanilgan:

That would come as no surprise to Louv, who touts even small doses of vitamin N (as in nature) as a powerful protector of your body and mind. (Nature at the confluence, 2020); N vitamini yana green pill (yashil dori) sifatida perifrazalangan: *The idea that nature exerts a healing power on our bodies and minds has led some to call it «Vitamin N.» While there's increasing evidence that this green pill can help us with everything from lower stress to a longer lifespan.* (Psychology Today, October 15, 2019); Shuningdek, Protein – the elixir of youth (New Scientist, September 5, 1997) misolida oqsilga nisbatan yoshlik eleksiri perifrazasi ishlatilgan.

O'zbek tilida: *E vitamini – yoshlik vitamini.* («Darakchi» gazetasi, 2020. 7-son); *Vitamin N boshqa antioksidantlarning kuchini oshiradi, shuning uchun ham uni «salomatlik himoyachisi» deb atasak bo'ladi.* («Darakchi gazetasi, 2017. 17-son); *Hujayralar uchun eng universal yoqilg'i glyukoza hisoblanadi* («Bekajon», 2018. №97. – B.28).

Demak, ikki bir-biriga qardosh bo'lmagan xalqlarning o'ziga xos lingvomadaniyati hatto ular iste'mol qiladigan vitaminlar nomlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunonchi, ingliz xalqi oqsilga boy mahsulot iste'mol qilishni yoqtirishi sabab oqsil mineraliga nisbatan perifraza qo'llanilgan bo'lsa, o'zbeklar shirinlik sevuvchi xalq bo'lganligi uchun ularning nutqida aynan glyukoza perifrazalangan.

XII. Qo'lda tayyorlanadigan turli damlama va darmondori nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar: Buzina (qizil mevali buta yoki daraxt) dorivor o'simligidan olinadigan damlamaning foydali jihatlari xususida ma'lumot berilgan bo'lib, ushbu damlama bir necha manbalarda turli xil tarzda qayta nomlangan: *Elderberry tincture can be one incredible healing powerhouse.* (Herbal Medicine, August 4, 2020); *Benefits of Elderberry Tincture: An Amazing Natural Immune Booster* (Oma Herbal Teas, January 28, 2019).

O'zbek tilida ham salomatlik uchun foydali bo'lgan mahsulotlarni obrazli nomlashda keng qo'llaniladi. Masalan, «*Oltin sut*»ning bo'g'im va asab tizimiga foydasi. *Buni tayyorlash uchun 50 gramm zarchavaning mayda kukuni 100 ml. suvga solinib, smetanasimon holga keltiriladi. 5-7 daqiqa past olovga qo'yilib, aralastirilib turiladi. Jigarrang tusdagi bo'tqa hosil bo'ladi.* («Darakchi» gazetasi, 2018. 30-son); «*Chempion*» ichimlik. *Karkadi – Sudan atirgullaridan tayyorlangan damlamani muntazam ravishda ichish ham tomirlarni kengaytirib, devorlarini mustahkamlaydi* («Darakchi» gazetasi, 2019. 1-son). Guvohi bo'lganimizdek, ingliz xalqining o'ziga xos lingvomadaniyatini hatto ular iste'mol qiladigan damlamalarda ham kuzatish mumkin. Chunki ular damlama tayyorlash uchun ishlatadigan foydali giyoh va dorivorlar, odatda, o'zbek xalqi uchun notanish hisoblanadi.

XIII. Yoshga doir holatlarni ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Ayni perifrazalar tibbiyot bilan bog'liq holatlarning yosh bilan, ma'lum davr bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, *The seven year itch (scabies) is contagious skin infestation by the mite Sarcoptes scabiei.* (Journal of Dermatology and Dermatologic Diseases, 2019).

O'zbek tilida: *Artrit - 50 yoshdan keyingi davr xastaligi.* («Darakchi» gazetasi, 2020. 7-son); *Osteoxondroz kasalligi nega «yosharib» ketdi? 30-40 yillar oldin bu kasallik qariyalarga xos edi. Lekin so'nggi yillarda, hattoki maktab yoshidagi bolalarga ham bu tashxis qo'yilmoqda.* («Shifo-info» gazetasi, 2017. 39-son).

XIV. Har xil muolaja nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Tibbiy perifrazalarning ushbu ko'rinishida tibbiy muolaja shakllari tasviriy ifodalanadi. Masalan, *Some people swear by acupuncture, citing it as a miracle to improve their quality of life because it's said to be able to treat everything from depression and allergies to morning sickness and cramps.* (Healthline, November 30, 2017); *Talk therapy (Psychotherapy), is a way to help people with a broad variety of mental illnesses and emotional difficulties* (American Psychiatric association, January 12, 2019).


O'zbek tilida: *Vaksinatsiya – viruslarga qarshi qalqon.* («Sug'diyona» gazetasi, 2018. 40-son.); «*Gemodializ: yo hayot, yo mamot...*» («Darakchi» gazetasi, 2019. 11-son.); «*Emlanish – organizm va xastalik uchrashuvi.*» («Doktor press» gazetasi, 2017. 6-son.)

Darhaqiqat, inglizxabonlar sog'lom bo'lish uchun turli tibbiy muolajalarni sevuvchi xalq bo'lganligi sabab, ushbu o'ziga xos hayot tarzi ularning tibbiy muolajalar bilan bog'liq lingvomadaniyatida ham o'z aksini topgan. Izlanishlarimiz davomida inglizlar o'zbeklarga nisbat tibbiy muolaja bilan bog'liq perifrazalarni ko'proq ishlatishiga guvoh bo'ldik.

XV. Shirinlik nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar. Keyingi misollarda ham ikki til doirasida inson tanasi uchun zararli bo'lgan shirinliklarga nisbatan ishlatilgan perifrazalar qo'llanishi ko'rsatilgan. Ikki qardosh bo'lmagan xalqlarda ko'p miqdorda shakar iste'mol qilish inson tana a'zolariga katta miqdorda zarar yetkazishini ifodalovchi shakar so'ziga nisbatan quyidagi perifrazalar qo'llanilgan: *Consuming a diet high in refined carbs and sugar leads to the production of AGEs, which may cause your skin to age prematurely. However, poor food choices can worsen wrinkles and speed the skin aging process.* (Healthline, June 3,

2018); ...consuming too much sugar, is considered the strongest risk factor for diabetes. (Healthline, 11 Reasons Why Too Much Sugar Is Bad For You, June 3, 2018).

O'zbek tilida: *Shirinlik – qomat dushmani*. («Shifo-info» gazetasi, 2016. 44-son.); *Asal – jigar yoqtiradigan shirinlik*. («Shifo-info» gazetasi, 20130. 46-son.); «*Shakarparast*» (*saraton*). *Inson organizmining asosiy dushmani bo'lgan saratonning eng yaxshi ko'radigan mahsuloti shakar ekanligi aniqlandi*. («Shifo-info» gazetasi, 2019. 12-son).



Xulosa. Tibbiy perifrazalarni lug'aviy ma'no guruhlariga ajratish davomida jami 212 ta tibbiy perifrazalar tahlilga tortildi. Statistik tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, inglizlarda kasalliklar bilan bog'liq perifrazalar, og'riq bilan bog'liq holatlarni, tana a'zolari nomlarini, tibbiy anjomlarni, vitamin nomlarini, turli tibbiy muolajalarni hamda shirinlik nomlarini ifodalovchi tibbiy perifrazalar o'zbek tiliga nisbatan miqdoran ko'proq qo'llanilganligiga, o'zbek tilida esa ayollarning ba'zi jismoniy holatini, o'simlak nomlarini, sabzavot nomlarini, yoshga doir holatlarni ifodalovchi perifrazalar ko'proq qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik.

Xullas, tibbiy perifrazalarning xilma-xil ko'rinishlari bo'lib, ular mohiyatan tibbiyot olamiga uzviy bog'liq holda shaxs, predmet va voqea-hodisaning tasviriy nomi sifatida nutqda vujudga keladi, yashaydi. Bundan tashqari, har bir xalq o'z ijtimoiy hayotida, madaniy yashash tarzida (boshqa sohalarda bo'lganidek) tibbiy nuqtayi nazarlar, insonga ruhiy, madaniy, milliy, ma'rifiy jihatdan ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etuvchi predmet, belgi, harakat, holat kabi omillar ikki xalqning lingvomadaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham tibbiy perifrazalar nutqda shu millatga, shu millat madaniyatiga xos lingvomadaniy jihatlarni tashuvchi birliklar sifatida alohida ahamiyatga ega. Bunday perifrazalar orqali sharq va g'arb madaniyatining o'ziga xos an'analari, qadriyatlarini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish va tahlil etish millat mentaliteti, madaniyati hamda qadriyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Апресян Ю.Д. *Синонимические средства языка и правила перифразирования*//Русский язык в национальной школе. –1972. – № 3. – С. 31.
2. Kobilova A.B. *Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида тиббий перифразаларнинг хусусиятлари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.*– Бухоро, 2022. – 148-б.;
3. Григорьев В.П. *К проблеме перифразы* // Сборник докладов и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С. 104 -114.
4. James Thomson. *The Season* // London: printed for J. Millan, near Scotland-Yard, White-Hall; and A. Millar, in the Strand, M.DCC.XXXV., 1735, P. 54.
5. Ильина И.З. *Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы. автореф. дис.... канд. филол. наук.* –М., 1954. – 24 с.
6. Kobilova A.B. *Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language* // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.12, Issue 05, 30-May 2022. P. 15-20.* https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6099

7. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *Some considerations about periphrases* // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.11, Issue 2, 30-February 2021. –P. 1637-1640. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.492). <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=2&article=264>
8. Kobilova A.B. *Periphrases used in medical texts and their characteristics (on the example of english and uzbek languages)* // *Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference*. – Paris, France, 2021. – P. 255-257.
9. <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/740>
10. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *Semantic and lingua-cultural features of English and Uzbek medical periphrases* // *International Journal on Integrated Education*. ISSN (Online): 2620-3502, Vol.5, Issue 6, 6-June 2022. P. 162-167. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/3144>
11. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *The use of the medical periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts* // *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. ISSN (Online): 2581-4230, Vol.7, Issue 6, 30-June 2021. –P. 143–150. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.22). <https://www.neliti.com/publications/347772/the-use-of-the-medical-periphrases-of-the-uzbek-and-english-languages-in-journal>
12. Djumayeva, n. *Comparative analysis of magical jewellery and ornaments in English and Uzbek fairy tales*. *Journalnx- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* ISSN No: 2581 - 4230.VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021,138-142.
13. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2022). *The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages*. *Eurasian Research Bulletin*, 6, 65–70. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>
14. Кухаренко В.А. *Practice in English stylistics*. –Підручник-Вінниця: Новая книга, 2000.
15. Макарова С.Я. *Перифраза в современном русском литературном языке (на материале газет)* // *Содержание и методика преподавания русского языка в средней и высшей школе: Материалы 15-й научно-методической конференции Поволжья*. – Волгоград, 1972. – С. 55-58.
16. Robert Blair. *The Grave* // *Great Britain, London, 1743*. – P. 8.
17. Уткина В.П. *Перифрастический оборот в русской художественной литературе* // *Известия Крымского педагогического института им. М.В. Фрунзе*. –Симферополь, 1959. –Т. 33, Вып. 1. – С. 87-109.
18. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). *Modern Methods of Translating Phraseological Units*. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 153-158. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516>.
19. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna. (2021). *Phraseologization as Cognitive Process*. *International Journal of Culture and Modernity*, 1, 22–26. Retrieved from <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/4>.
20. Fuchs C. *A parafrase lingustica: Equivalencia, sinonimia ou reformulacao* // *Cadernos de estudos ling*. Campinas, 1985. –№ 8.– P. 129-134.